

DOSTONLARDA DEV VA AJDARHO OBRAZLARINING RAMZIY MA'NOSI**Norqulo'va Mohinur Mamayusuf qizi**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

Ergasheva Rayxon O'tkirovna

Ilmiy rahbar. TISU o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18175042>

Annotatsiya. Ushbu maqola dostonlardagi dev va ajdarho obrazlarning ramziy ma'nosini va mifologik mohiyatini tahlil qiladi, ularning semantik qatlamlari va arxaik tuzilishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Doston, dev, ajdarho, ramziy ma'no, mifologik mohiyat.

THE SYMBOLIC SIGNIFICANCE OF GIANTS AND DRAGONS IN EPIC LITERATURE

Abstract. The article analyzes the symbolic meaning and mythological essence of the images of giants and dragons in epics, revealing their semantic layers and archaic structure.

Keyword: Epic literature, giant, dragon, symbolic meaning, mythological essence.

СИМВОЛИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ОБРАЗОВ ВЕЛИКАНОВ И ДРАКОНОВ В ЭПОСЕ

Аннотация. В статье анализируются символическое значение и мифологическая сущность образов великанов и драконов в эпосе, раскрываются их семантические слои и архаическая структура.

Ключевые: Эпос, великан, дракон, символическое значение, мифологическая сущность

KIRISH. Dostonlar insoniyat madaniyatining eng qadimiy, murakkab va ko'p qatlamli badiiy shakllaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat tarixiy voqealar va afsonaviy hikoyalarni saqlab qoladi, balki xalqning axloqiy qadriyatlari, metafizik (insonning mavjudlik, hayot maqsadi va ruhiy tushunchalari) va madaniy xotirasini ham aks ettiradi. Dev dahshatli, zulm va zo'rlik, qonxo'rlik yoki yovuz kuchlarning irodasiga bo'ysunuvchi bahaybat maxluq sifatida namoyon bo'ladi. Devlar yer osti saltanatlarida, g'orlarda, kimsasiz cho'l va dashtdagi qasrlarda istiqomat qiladi. Sohibining amriga itoat etib, parilarni qo'riqlaydi. ("Gulnor pari", "Yunus pari", "Misqol pari", va boshqalar).

Doston qahramonlariga qarshi yakka yoki to'da bo'lib kurashadi, ammo hamisha inson qobiliyati, aqli, kuch-qudrati qarshisida ojizlik qiladi, oqibatda yengilgan devlar insonga bo'ysunadi va uning izmiga yuradi. Devlar osmonda uchuvchi va yerda yuruvchi ikki toifaga ajraladi. Ba'zilari tabiatan hiylagar, makkor, boshqalari nozik san'atkor, go'zal binolar quruvchi usta, afsonaviy kuch egasi (Samandar, Oq dev, Qora dev, Qizil dev, Sariq dev, Boymoq dev, Yaproq dev) Bu arxetiptik obrazlar nafaqat yovuzlikni ifodalovchi ramz sifatida, balki insoniyat tafakkuri, ijtimoiy va axloqiy qarama-qarshiliklar hamda ekzistensial (bu insonning hayot, ma'no va o'limga oid ichki kurashi) sinovlarni anglatuvchi kompleks semantic (arxetiptik obrazlarning bir nechta, murakkab ma'nolarni o'z ichiga oladi) qatlam sifatida namoyon bo'ladi.

Folklorshunos J.Eshonqulovning "O'zbek xalq og'zaki ijodida dev obrazining mifologik asoslari va badiiy talqini" nomzodlik dissertatsiyasida qayd etilganidek, dev obrazi "Avesto" da ham muhim o'rin tutadi. Unda devlar yovuzlik timsoli-iblislar shaklida tasvir etiladi.

Dostonda ular qahramonlarining jasorati, iroda kuchi va intellektual salohiyatini (qahramonning aqliy qobiliyatlari) sinovdan o'tkazuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Devlarning xatti-harakatlari va qaror qabul qilishdagi murakkabligi doston narrativining (hikoya qilish usuli) dramatik strukturasi (voqealar rivojlanishining tashkil etilishi va qahramonning o'zgarishi) bilan chambarchas bog'liqdir, chunki ular qahramonning psixologik va axloqiy o'sishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, devning har bir harakati insoniyatning axloqiy va metafizik sinovlari bilan uyg'unlashadi va o'quvchiga murakkab ijtimoiy va axloqiy paradigmani tahlil qilish imkonini beradi. Masalan "Maliki ayyor" dostonini olaylik:

"Avazxon darvozadan ichkariga kirib qarasa, qirq dev aroq-sharoq ichib mast bo'lib yotibdi. Bu qirq devning kattasini Yaproq dev der edi. Avazxonni ko'rib, vaqti xush bo'lib kulib, "xudodan har nima tilasak berar ekan, mast bo'lib edik, ustidan yeydigan barra kabob ham berdi", deb xizmatkorlariga bir so'z deydi:

To'kinglar ko'zidan serob yoshini,
Hayallatmay, darrov kesing boshini,
O'rta olib yeng buning boshini.
Men bilmayman qay shahardan kelibdi,
Rizqimizga xudoy buni beribdi.

Avazxon bu zo'zni eshitib, devlarga Chambildan kelganini, onasi Misqol pari, otasi Go'ro'g'li ekanini aytadi. Avazxondan Go'ro'g'li ismini eshitib devlar qo'rqib qolishadi, shunda Yaproq dev Avazxon bilan gaplashadi. Avzaxonni to'rga o'tkazadi." Bu parchada Yaproq dev Avazxonga yordam beradi chunki Yaproq dev Misqol parining xizmatkori bo'ladi. Qisman sadoqatlikni bildiradi, lekin devlar Go'ro'g'lidan qo'rqishmaganida ular Misqol parining xizmatkorlari bo'lishiga qaramay Avazxonni boshini kesib yegan bo'lishardi. Asardagi ayrim devlar qahramonga yordam berish uchun ham ishtirok etishadi (Qizil dev, Yaproq dev).

Ajdarxo esa ko'pincha strategik, murakkab va ko'p qatlamli yovuzlik timsoli sifatida tasvirlanadi. U qahramon va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni chuqurroq va ramziy qatlamlarda ifodalaydi. Ajdarho ko'pincha doston qahramonining intellektual, psixologik va axloqiy salohiyatini sinovdan o'tkazadi. Shu tariqa, dev va ajdarho obrazlari dostonlarning narrativ strukturasi, dramatik qarama-qarshiliklari va axloqiy didaktikasini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ularning ramziy mohiyati insoniyatning abadiy ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashini ifodalaydi, bu esa arxaiik va badiiy qatlamlarning uyg'unligini ta'minlaydi. Bu kurash, nafaqat jismoniy janglarni, balki, insonning ichki dunyosidagi axloqiy tanlovlarni ham ifodalaydi. Ajdarho o'zining strategik va murakkab tabiati bilan, qahramonni har tomonlama sinovdan o'tkazadi. U faqat kuch bilan emas, balki ruhiy, axloqiy va intellektual sinovlar orqali ham qahramonning haqiqiy kuchini ochib beradi. Ushbu obrazlar orqali, insoniyatning barcha tarixiy davrlarida mavjud bo'lgan axloqiy va madaniy qarama-qarshiliklar ko'rsatiladi. Ajdarho va devlarning obrazlari, arxetipik sifatida xalq tafakkurining chuqur qatlamlarini aks ettiradi.

Misol uchun "Kuntug'mish" asarida bir bo'lak non va suv evaziga Yunxo ajdari (asarda ilon deb ham keltiriladi) bilan kurashishiga to'g'ri keladi:

Armon bilan yig'lab qoldi ortimda,
Sanam yorimni unutib boraman,
Xudo, rahm aylagin g'arib holima,
Oxirat yo'lini tutib boraman.
Kuntug'mish ilon aqlin shoshirib, jang qila boshlaydi:
Shahzodaning qaddi yoyday bukildi,
Ikki ko'zdan selob yoshi to'kildi.
Turmoqqa shahzodaning qolmay majoli,

Esankirab, esiz, Shahzod yiqildi...

Dev va ajdarho obrazi asarda qahramondan kuchliroq bo'lsada insonning zaif tomoni bo'lganidek, ularning ham zaif tomoni bor:

Boshida kulohi, egnida janda,

Yetib keldi Burqsurmast devona:

-Boshing ko'tar. No'g'ay elning shahzodi,

Farzandim, To'ymadir ilonning oti,

Uch marta To'yma deb aysang, yiqilar

Ajdar qanchalik kuchli bo'lmasin uning birgina zaif tomoni tufayli halok bo'lishi tasvirlangan. Bu obrazlar faqatgina yovuzlikni emas balki insonning ichki qo'rquvi va ba'zi hollarda xarakterini ko'rsatib beradi. Devlar parilarga xizmat qildi degani, bu o'ldirmaydi degani emas. Ba'zan dev obrazi o'z egalariga ham qarshilik qilishi mumkin. Ammo yomon ma'noda emas, ular Gulqizoyimni o'ldirmoqchi bo'ladi chunki Avazni Gulqizning o'ynashi deb o'ylaydi: Endi bu devlarning keladigan vaqti bo'ldi. Qor, yomg'irlar uchqunlab, shopiri keldi. Gulqiz oyim o'rnidan turib, Avazxonga bildirmagan kishi bo'lib: - Avazjon, endi sizni men sandiqqa solib qo'yayin,- deb sandiqqa solib qo'ydi. Avaz hayron bo'lib sandiqqa kirib yotdi. Bir vaqti edi, devlar qahrlandi kirib keldi. Gulqizga qarab,

Gulqiz oyim, eshit aytgan so'zimdi,

Armon bilan, Gulqiz, endi o'lasan.

Boshdan toji, qo'ldan berib davlatni,

Bir odamman qurding sen ham suxbatdi,

Bu qilgan ishlaring, bilsang, uyatdi,

Ul odam bu erda pinxon bo'libdi.

Dev, Gulqizning xatti-harakatlarini tanqid qilgan holda, aslida uning shaxsiy yuksaklik, axloqiy meros va jamiyatdagi o'rnini himoya qilishga harakat qiladi. Devning so'zlarida "olmaday so'ldiray guldai yuzingni", "Xizmatkor qib turding hamma qizingni" kabi iboralar, Gulqizning nafaqat o'zining shaxsiy sha'nini, balki uning jamiyatdagi ahloqi holatini ham tanqid qiladi. Dev, Gulqizning boshqa odamlar bilan munosabati, uning shaxsiy maqsadlari va intilishlarining jamiyatdagi axloqiy me'yorlariga muvofiq kelmasligini ko'rsatadi, uning bu xatti-harakatlarini to'g'rilashni istaydi. Shu o'rinda, devning o'zi nohaq yoki yovuz kuch sifatida ko'rsatilsa ham, uning so'zlari jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni tiklashga yo'naltirilgan bir "axloqiy jihat" sifatida talqin qilinishi mumkin.

Har bir jang, har bir qahramonning muvaffaqiyati yoki mag'lubiyati insoniyatning axloqiy tanlovi va iroda sinovining ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli dev va ajdarho obrazlarini o'rganish bizga inson tabiatining murakkabligini, uning ichki dunyosini va qadriyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ularning harakatlari dostonning dramatik qurilmasi bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek intertekstual bog'liqlikni ham aks ettiradi.

Turli dostonlarda ularning xatti-harakatlari va funksiyalari o'xshash bo'lishi, madaniyat va xalq ongining uzluksizligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, dev va ajdarxo obrazlari xalq estetik qarashlari va ijtimoiy tafakkurning arxetipik ifodasi sifatida ham ahamiyatlidir. Ularning semantik va ramziy qatlamlarini ochib berish orqali, biz dostonlarning arxaik tuzilishini, og'zaki ijodiyotining poetikasini, shuningdek xalq badiiy tafakkuridagi strukturalarini chuqur tushunish imkoniga ega bo'lamiz. Shu jihatdan ular nafaqat badiiy, balki madaniy, pedagogik va epistemologik ahamiyatga ega. Bugungi kunda dev va ajdarxo obrazlarining mazmuni ancha o'zgargan.

Ular endi faqatgina mifologik qahramonlar yoki fantastik mavjudotlar emas, balki, zamonaviy ijtimoiy, siyosiy va ekologik kontekstda ko'plab muammolarni ramzlashga xizmat qilmoqda. Shuning uchun, bu obrazlar bugungi dunyoda o'zining yangi va dolzarb talqinlariga ega bo'lib qoladi. Agar biz dev va ajdarxo tasvirlarining bugungi dunyo bilan bog'liqligini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularning o'rnini texnologik yovuzliklar egallashi mumkin. Global internet tarmog'ida kiber xavfsizlikka tahdidlar, onlayn manipulyatsiyalar va axborot urushlari zamonaviy ajdarxolarni yaratadi. Bu "ajdarxolar" insoniyatni manipulyatsiya qiluvchi texnologik kuchlar sifatida qaraladi. Ular raqamli dunyoda odamlarni aldash, ma'lumotlarni buzish va global hukumatlar orqali jamiyatni nazorat qilishga intiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda, masalan, "fake news" (yolg'on axborotlar) va mislead-texnikalar (axborotni noto'g'ri yo'naltirish) orqali insonlar o'rtasida ishonchni yo'qotish, ijtimoiy tarmoqlarda kiberhujumlar, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi kabi hodisalar — bugungi davrning ajdarxolari sifatida ko'rish mumkin. Eng muhimi, dev va ajdarxo obrazlarining turli davrlarda turlicha talqin qilinishi ularning semantik moslashuvchanligini – ya'ni tarixiy jarayonlar, ijtimoiy ehtiyojlar va badiiy-estetik talablarga ko'ra yangidan-yangi ma'no kasb etish qobiliyatini ko'rsatadi. Bu esa mazkur obrazlarning nafaqat folklor merosida, balki zamonaviy adabiyot, san'at, kino, psixologiya va pedagogikada ham o'z dolzarbligini yo'qotmayotganini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, dev va ajdarxo obrazlari dostonlarda nafaqat voqelikni boyituvchi vosita sifatida, balki inson ruhining murakkab tuzilishini, ijtimoiy va axloqiy qarama-qarshiliklarni anglash imkonini beruvchi ramziy tizim sifatida xizmat qiladi. Ular insonning ichki kurashlari, qaror qabul qilish jarayonidagi muvozanat va iroda sinovlarini aks ettiradi, shuningdek, narrative voqelikning strukturalarini boyitadi va dramatik dinamikani shakllantiradi.

Dev va ajdarxo obrazlarining turli davrlarda turlicha talqin qilinishi, ularning semantik moslashuvchanligini va tarixiy, madaniy, hamda badiiy jarayonlar bilan doimiy aloqasini ko'rsatadi. Ularning zamonaviy adabiyot, san'at, kino, psixologiya va pedagogikada saqlanib qolishi, ularning badiiy, madaniy va epistemologik ahamiyatining doimiylikni tasdiqlaydi. Shu sababli, dev va ajdarxo obrazlari, nafaqat folklor va badiiy merosda, balki zamonaviy tafakkurda ham o'zining muhim rolini davom ettirmoqda.

Adaboyotlar

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. "Jahon adabiyoti" jurnali, 2022-yil 1-son.
3. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1988-yil.
4. Ergash Jumanbulbul o'g'li; yozib oluvchilar: Muhammadisa Ernazar o'g'li, Hodi Zarif; mas'ul muharrir T. Mirzayev.-T.: "Sharq", 2011.
5. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1988-yil.
6. R.Ergasheva . Sirojiddin Sayyid's skill in using the art of talmeh.
7. <https://zenodo.org/records/8398925>
8. R.Ergasheva. The Metapoetic Interpretation Of Sirojiddin Sayyid's Creative Work. <https://doi.org/10.37547/ijll Volume05Issue11-02>